

MINTAQADA KLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Sharipova Zulayho Abdirimovna

*Ma'mun universiteti NTM Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati mintaqasida klasterlar samaradorligini oshirishdagi innovatsion yondashuvlar va ularning xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: klaster, baholash, samaradorlik, innovatsion klister, kognitiv klaster.

Mintaqada klasterlar samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish klasterlarning xilma xil turlarini joriy qilish bilan belgilanadi. Shulardan eng muhimi kognitiv va innovatsion klasterlarni joriy qilib, ularni amalga oshirish yo'nalishlarini mos iqtisodiyot sohalariga tadbqiq qilish lozim. Bu klaster shaklida iqtisodiyot tarmoqlarining samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Ya'ni, iqtisodiyotda klaster faoliyati xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni mintaqaviy boshqarish sohasidagi tendensiyalarni hisobga olgan holda butun tarmoq majmuasini tarkibiy o'zgartirish mumkin bo'ladi. Bu borada mintaqani ushbu sohada va butun mintaqaviy iqtisodiyotda sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishga imkon beradigan klaster shaklidan foydalanish lozim. Bunday hududiy tizim kognitiv klaster bo'lib hisoblanadi. Shu bois, kognitiv klasterni mintaqaning innovatsion salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun bilimlarni yaratish va boshqarishning ilmiy-ijtimoiy texnologiyalaridan foydalanadigan hududiy integratsiya tizimi sifatida aniqlash mumkin [1].

Kognitiv klasterning maqsadi aholining inson kapitalining o'sishi tufayli mintaqada moslashuvchan texnologik ijtimoiy-iqtisodiy makonni shakllantirish bo'lib sanaladi. Kognitiv klasterning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- mintaqaviy subyektlarning sifat jihatidan yangi ijtimoiy darajada ishlashiga imkon beradigan kognitiv infratuzilmani shakllantirish;
- kognitiv resurslarning rivojlanishini rag'batlantirish;
- kognitiv texnologiyalarning rivojlanishini rag'batlantirish va ularni qo'llash sohalarini kengaytirish;
- bilish texnologiyalari va ularning mahsulotlariga iste'molchilar talabini shakllantirish;
- bilish texnologiyalari natijalarini eksport qilish.

Kognitiv klaster quyidagi asosiy unsurlarga asoslanadi:

- kognitiv manbalar:

a) kollektiv ong.

b) axborot.

v) innovatsiya.

- kognitiv texnologiyalar:

- a) bilim texnologiyalari.
- b) ijtimoiy telekommunikatsiya texnologiyalari.
- v) tabiatdan foydalanish texnologiyalari.
- kognitiv kompetensiyalar:
 - a) o‘z-o‘zini rivojlantirish.
 - b) ijtimoiy va ijodiy faoliyat.
 - v) strategik fikrlash.

Shular bilab birga, kognitiv klasteri boshqarish tamoyillari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- dialogik usul. Qaror qabul qilishda demokratik boshqaruv uslubi hukmron ko‘pchilikning fikriga asoslanadi. Jamoaviy aks ettirish asosida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish yo‘nalishining yagona pozitsiyasi shakllanadi.

- ochiq axborot maydoni. Mavjud ma’lumotlar sodir bo‘layotgan jarayonlarga tez va samarali javob berishga imkon beradi. Bu klasteri har bir a’zosining malakasini oshiradi va strategik fikrlashni amalga oshirishga imkon beradi.

- faoliyatni aniqlash. Ushbu yondashuv asosiy jihatlar bo‘yicha faoliyat mezonlarini belgilaydigan asosiy aniqlovchilarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

- tarkibning o‘zgaruvchanligi. U doimiy ravishda o‘zgarishi, rivojlanishi hamda barcha yangi aloqalar va birlashmalarni yaratishi kerak.

Mazkur klaster tuzilmasining samarali ishlashi shartlari esa quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

- ijtimoiy jamiyatning moslashuvchanligi va faolligi.
- kollektiv rejalashtirish.
- yuqoridan pastga moliyalashtirish.

Fikrimizcha, Xorazm viloyatida tarmoqlararo klasterlar samaradorligini oshirish uchun innovatsion klasterlar siyosatini ishlab chiqish lozim. Mintaqada innovatsion klasteri shakllantirish uchun shart-sharoitlar zarur bo‘lib, ular quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

- ilmiy salohiyatning mavjudligi, ya’ni jahon darajasidagi olimlar, yirik ilmiy markazlar, universitet va ishlab chiqarishni mavjudligi;

- ilmiy shahar maqomida ajralib turishi mumkin bo‘lgan institutsional shart-sharoitlarning mavjudligi;

- rahbariyat tomonidan iqtisodiy rivojlanishning strategik ustuvor yo‘nalishi sifatida innovatsiyalarni rivojlantirishga oid qaror qabul qilinganida namoyon bo‘ladigan siyosiy shartlarni mavjudligi;

- ishlab chiqarish binolarining mavjudligi, ya’ni mintaq sanoatining innovatsiya darajasi va klasterga kiritilgan alohida korxonalar majmui.

Shu bilan birga, klaster ichidagi barcha korxonalarni ishlab chiqarishning innovatsionligi darajasiga va pirovardida “raqobatbardoshlik qutblari”ga erishish uchun zarur shart sifatida muhim talablar ham paydo bo‘lishi kerak.

Innovatsion klaster doirasida innovatsiyalarning eng yuqori samaradorligi tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu tamoyil iqtisodiy barqaror ichki klaster tuzilishini qurishda izchillikni ta'minlash va sanoatning boshqa tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning strategik vazifalari bilan o'zaro bog'liqlikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muammolarini hal qilishda moslashish mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Innovatsion klasterlarni shakllantirishdan maqsad shahar, tuman va viloyat hududida joylashgan bir xil soha korxonalarini, shuningdek, ular bilan birga joylashgan ta'lim, ilmiy, muhandislik, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni yagona texnologik zanjirga birlashtirishdan iborat [2]. Shu orqali innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh mahsulotlar yaratish yo'nalishi orqali mintaqada sanoat korxonalarining innovatsion va investitsiya faoliyati jarayonlarini to'g'ri boshqarish imkonini beradi.

Darhaqiqat, mintaqada klasterlar samaradorligini oshirishda uning turlari zarur bo'lib, bugungi kunda viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan klasterlarda innovatsion yondashuvlar qo'llanilmoqda. Ularning yondashuvlarini ajratilgan yer maydoni (ga), fermer xo'jaliklari soni, paxta ekilgan maydoni (ga), yalpi hosil (ming tonna), hosildorlik (s/ga) va eksport hajmi (ming AQSh dollar) kabi ko'rsatkichlarda ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

**2021-yilda Xorazm viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlarini
samaradorlik ko'rsatkichlari tasnifi**

№	Hududlar nomi	Korxona nomi	Ajratilgan yer maydoni, ga	Fermer xo'jaliklari soni	Paxta ekilgan maydoni, ga	Yalpi hosil, ming tonna	Hosildorlik, s/ga	Eksport hajmi, ming AQSh dollar
1	Bog'ot tumani	"Kobotex" MChJ	6775	86	6775	24972	36,9	7684
2	Gurlan tumani	"Gurlan global Teks" MChJ	11600	216	11600	40967	35,3	2500
3	Qo'shqo'pir tumani	"WVM Qo'shko'pir Cluster" MChJ	9600	131	9600	33191	34,6	5050
4	Urganch tumani	"Urganch Cluster" MChJ	8900	121	8900	30832	34,6	9800
5	Hazorasp tumani	"Hazorasp Tex" MChJ	5500	69	5500	20184	36,7	8250
6	Xonqa tumani	"Khorezm Tex" MChJ	11000	172	11000	39300	35,7	14522
7	Xiva tumani	"Khiva Cluster" MChJ	5000	101	5000	18304	36,6	4015
8	Shovot tumani	"Textile Finance Khorezm" MChJ XK	8100	167	8100	25924	32,0	15740
9	Yangiariq tumani	"Yangiariq Tex" MChJ	4700	146	4700	15548	33,1	3500
10	Yangibozor tumani	"Yangi bozor textile agro cluster" MChJ	8900	98	8900	31298	35,2	31333
11	Tuproqqal'a tumani	"Tuproqqal'a textil" MChJ	2682	162	2682	9337	34,8	7684
Jami			82757	1469	82757	264885	35,5	110078

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu keltirilgan 1-jadvalga asosan, Xorazm viloyatida 2021-yilda agrar sohada jami 25 ta klaster faoliyat ko'rsatib, ulardan 11 tasi paxta-to'qimachilik, 8 tasi g'allachilik, 6 tasi meva-sabzavotchilik yo'nalishida shakllantirilgan. Unda keltirilgandek, viloyatda tashkil qilingan klasterlarning eng katta ulushi yoki 44 foizi paxta-to'qimachilik klasterlariga to'g'ri keladi. Ajratilgan yer maydoni jihatidan eng katta klaster Gurlan tumanidagi "Gurlan global Tekst" klasteri bo'lib, uning yer maydoni 11600 gektarni tashkil qiladi. Huddi shunday Xonqa tumanidagi "Khorezm Tex" klasteri 11000 gektar, Qo'shko'pir tumanidagi "WVM Qo'shko'pir Cluster" klasteri 9600 gektar maydonda tashkil qilingan. Barcha paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 2021-yilda 110 mln.AQSh dollari hajmida mahsulotlar eksport qilingan.

Bugungi kunda viloyatda paxta-to'qimachilik klasterlarida chuqur islohotlar amalga oshirilib, zamonaviy yutuqlar va innovatsiyalarni tadbiq qilmoqda. Xususan, mintaqada yangi innovatsion yo'nalish sifatida kelajakda baliqchilik klasterlarining tashkil etilishidir. Eronning "Beyza Feed Mill" kompaniyasi Xorazm viloyatida baliqchilik klasterini tashkil etish bo'yicha investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalashtirmoqda [3]. Xorazm viloyatida 25 mln. dollarga teng baliqchilik klasterini tashkil etish bo'yicha loyihani amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ushbu kompaniya Sheroz shahrida joylashgan zavodi baliq uchun ozuqa, tayyor baliq mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlar, shu jumladan ikra ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi.

Xulosa shuki, Xorazm viloyati mintaqasida klasterlar samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar zarur bo'lib, ular bevosita kognitiv va innovatsion klasterlarni joriy qilish shaklida har biriga mos iqtisodiyot sohalariga tadbiq qilish lozim. Kognitiv klaster orqali aholining inson kapitalining o'sishi tufayli mintaqada moslashuvchan texnologik ijtimoiy-iqtisodiy makonni shakllantirishga erishilsa-da, innovatsion klaster esa innovatsiyalarning eng yuqori samaradorligi tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi. Natijada, innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga erishiladi. Bu holatda esa mintaqada klasterlar samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Недосвитий Н.В. Повышение эффективности развития туристской индустрии на основе инновационных подходов к формированию кластерной структуры в регионе. // Вестник Томского государственного университета, 2012, Серия "Экономика", №4 (20). - с.105-112.
2. Дехканова Н.Ш. Организация инновационных кластеров в управлении инновационно-инвестиционной деятельностью промышленных предприятий. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. №4, iyul-avgust, 2020-yil. - с. 179.
3. <https://kapital.uz/uz/xorazmda-25-mlnlik-loyiha/>